NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIK VA LIKVIDLIKNI BOSHQARUV HISOBIGA INTEGRATSIYALASH: KO'RSATKICHLAR TIZIMI, PROGNOZLASH VA ERTA OGOHLANTIRISH MEXANIZMI.....	803
Xojiboyev Muxiddin Shodimuxamedovich	
TAYYOR MAHSULOT QADRSIZLANISHI HISOBINI XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHTIRISH: ISHCHI SCHYOTLARINI JORIY ETISHNING METODIK ASOSLARI.....	808
Babakulova Matluba Kurbannazarovna	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И МЕДЕЛИ УПРАВЛЕНИЯ СИСТЕМОЙ РАБОТЫ В МАХАЛЛЯХ.....	812
Kosimjonov Nozimjon Kozimjonovich	
MINTAQALARNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHIDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING AHAMIYATI: NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI	815
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich	
TURISTIK XIZMAT BOZORINING MOHIYATI, UNING VAZIFALARI VA MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	821
Payazov Murod Maqsudovich, Salimova Mumtozbeqim Jahongir qizi, Shahnoza Xudoyberdiyeva Davlatovna	
CHIGITLI PAXTA TARKIBIDAN YOT ARALASHMALARNI AJRATISH UCHUN QO'LLANILADIGAN TEXNOLOGIYALAR.....	825
Bozorov Dilmurod Bahromjon o'g'li, Jakparov Oltinboy Rustamjon o'g'li	
FEMALE ENTREPRENEURSHIP AND GREEN INITIATIVES: A CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN	830
Abduxafizova Madinabonu Mirabbos qizi	
SOLIQ INSTRUMENTLARI ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	834
Akbarov Abdulhamid Akmal o'g'li, Ahrorqulov Jonibek Otabek o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SANOAT ISHLAB CHIQRISHI KONSENTRATSIYASINING HUDUDIY TAHLILI: VILOYATLAR VA MAXSUS IQTISODIY ZONALAR BO'YICHA HERFINDAHL-HIRSCHMAN INDEKSI	839
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	



CHARM-POYABZAL SANOATI TARMOG'INING RIVOJLANISHI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI TO'G'RISIDA.....
..... 847
Azimova Feruza Payziyevna, O. Maxmudov



CHARM-POYABZAL SANOATI TARMOG'INING RIVOJLANISHI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI TO'G'RISIDA

Azimova Feruza Payziyevna

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti professori

ORCID: 0009-0007-8007-7276

E-mail: azimovaf@gmail.com

O. Maxmudov

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti talabasi

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, charm-poyabzal tarmog'ini jadal rivojlantirishga qaratilgan maqsadli dasturlar izchil amalga oshirilib kelinayotgani bayon etilgan. Shuningdek, ushbu maqolada charm-poyabzal sanoati tarmog'ining rivojlanishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: to'qimachilik, ip-gazlama, jun, ipak, trikotaj, noto'qima materiallar, to'r to'qish sanoati, to'qimachilik galantereyasi sanoati, tikuvchilik, charm-teri, mo'yna va poyabzal.

АННОТАЦИЯ. В статье описывается реализация целевых программ, направленных на дальнейшее улучшение деловой среды в нашей стране и стремительное развитие кожевенно-обувной промышленности. Также в статье рассматривается развитие кожевенно-обувной промышленности.

Ключевые слова: текстиль, пряжа, шерсть, шёлк, трикотаж, нетканые материалы, кружевоплетение, текстильная галантерея, швейное дело, кожа, мех и обувь.

Abstract. The article describes the implementation of targeted programs aimed at further improving the business environment in our country and rapidly developing the leather and footwear industry. The article also describes the development of the leather and footwear industry.

Keywords: textiles, yarn, wool, silk, knitwear, nonwoven materials, lace-making industry, textile haberdashery industry, sewing, leather, fur, and footwear.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiyotning real sektori korxonalarini modernizatsiya qilish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar muhim tuzilmaviy tarmoqlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Mana shunday tarmoqlardan biri yengil sanoatdir. U kompleks tarmoq hisoblanib, tarkibida uch guruhga birlashtirilgan 20 dan ziyod tarmoqlar mavjud: to'qimachilik, xususan, ip-gazlama, jun, ipak, trikotaj hamda junga birlamchi ishlov berish, noto'qima materiallar ishlab chiqarish, to'r to'qish sanoati, to'qimachilik galantereyasi sanoati, tikuvchilik, charm-teri, mo'yna va poyabzal.

So'nggi yillarda O'zbekistonda charm-poyabzal tarmog'ini rivojlantirish va tadbirkorlik muhitini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqsadli davlat dasturlarining samarasi bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushi 53,9 foizga yetganligida o'z aksini topadi. Ushbu ko'rsatkich 2015-yilda 31,0 foizni, 2025-yilda esa 52,5 foizni tashkil etganligini aytib o'tish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi vaqtda to'qimachilik sanoatini yanada rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilib, sifat menejmenti tizimini joriy etish, boshqarishda innovatsion usullarni qo'llash borasida keng ko'lamdagi amaliy ishlar qilinmoqda. Bu sohadagi muhim yo'nalishlar tayyor mahsulotlar bozorida ham, xomashyo bozorida ham import o'rnini bosishga qaratilmoqda. Charm-poyabzal sanoati sohasidagi islohotlarning asosiy maqsad va vazifalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 23-fevraldagi "Respublika iqtisodiyotining charm-poyabzal tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonida aniq belgilab berilgan [1]. Natijada, yangi korxonalar tashkil etildi, zamonaviy texnologiyalar joriy qilina boshlandi. "O'zbekcharm-poyabzali" charm, mo'yna va poyabzal korxonalari uyushmasining tashkil etilishi bilan respublika poyabzal sanoati bosqichma-bosqich qayta tiklana boshladi. Ushbu Farmonda quyidagi

muhim vazifalar belgilandi

tarmoqda texnikaviy va investitsiya siyosatini o'tkazish, xorijiy sarmoyalarni keng jalb etish, ilg'or texnologiyalarni joriy qilish, kooperatsiyaning yangi tashkiliy shakllarini rivojlantirish, raqobatbardosh charm-poyabzal, galantereya va mo'yna mahsulotlari ishlab chiqarish uchun korxonalarni modernizatsiyalash hamda texnika bilan qayta jihozlash;

ichki va tashqi bozorlarda marketing tadqiqotlarini amalga oshirish, eksportga mo'ljallangan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi va turlarini ko'paytirish;

uyushma tarkibiga kiruvchi korxonalar, shuningdek, boshqa sanoat korxonalari va tashkilotlari, qishloq xo'jaligi kooperativlari — shirkatlari, fermer va dehqon xo'jaliklari o'rtasidagi xo'jalik hamda iqtisodiy aloqalarni shartnomaviy munosabatlar tizimini takomillashtirish yo'li bilan mustahkamlash.

charm, mo'yna xomashyosini tayyorlash, korxonalarni zarur moddiy-texnikaviy resurslar bilan ta'minlash, tayyor mahsulotni sotish sohasida agrosanoat integratsiyasi va kooperatsiyalashuvning yangi tashkiliy shakllarini rivojlantirish jarayonlarini chuqurlashtirish.

Mana shu va boshqa chora-tadbirlarning qo'llanilishi charm-poyabzal sanoatining istiqboldagi rivojlanishini belgilashga, tovarlarning muvofiq assortimenti va sifat darajasini oshirishga yordam berdi.

Poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish ishlab chiqarishni mukammal tashkil etish, imkoniyatlardan samarali foydalanish, korxonalarni rekonstruksiya qilish va texnik qayta jihozlash, texnologik jarayonlarni takomillashtirish, zamonaviy xomashyo va materiallardan foydalanish, mahsulotlarning material sarfini kamaytirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish asosida amalga oshiriladi.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "...iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlar" ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi [5].

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, charm-poyabzal tarmog'ini, soha korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida respublikada ishlab chiqarilayotgan paxta tolasi to'liq va ip-kalavanning 45 foizi qayta ishlanmoqda. Shuningdek, sohaning eksport salohiyati 3,2 milliard dollardan oshdi.

Poyabzal mahsulotlari insonlarning kundalik turmush faoliyati uchun eng zarur komponentlar qatorida muhim o'rin egallagan. Poyabzal hozirgi zamon kishisi ust-boshining ajralmas va muqobili bo'lmagan atributi hisoblanadi. Shunday ekan, har bir mamlakatda, shu jumladan, O'zbekistonda ham poyabzal bozorining mavjud bo'lishi shartdir. Agar O'zbekistonning iqlim va ijtimoiy sharoitlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, aholi jon boshiga talab etiladigan muvofiq iste'mol me'yori o'rtacha 2,6 juft poyabzalga to'g'ri keladi.

Agar kerakli poyabzalning yarmi, bu esa taxminan bir yilda 37 mln juftga teng bo'lib, respublikada ishlab chiqariladigan bo'lsa, 2 mln odamni ish bilan ta'minlash mumkin bo'lar edi. Albatta, bunday hajmdagi bandlikni qisqa muddatda ta'minlash murakkab hisoblanadi. Poyabzal bozorining shu qadar muhim ahamiyatga ega ekaniga qaramay, O'zbekistondagi rasmiy statistik ma'lumotlar, haqiqatda, mazkur tarmoqda zaxiralardan yetarli darajada foydalanilmayotganligini va o'sish salohiyati ham mavjud imkoniyatlar darajasidan ancha pastligini ko'rsatmoqda.

Poyabzal ishlab chiqarish, umuman, tabiiy charmga ishlov berish san'ati O'zbekistonda an'anaviy hunarmandchilik tarmog'i hisoblanadi. Bu, birinchi navbatda, hududning boy xomashyo bazasi bilan bog'liq. Charm-poyabzal tarmog'ining asosiy xomashyosi qoramol va qo'y-echki terisi hisoblanadi, ular ichki bozorda yetarli miqdorda mavjud. Respublikada bir yilda o'rtacha 11,0 mln dona teri xomashyosi, shu jumladan, 7,0 mln bosh qo'y-echki va 4,0 mln bosh qoramol terisi olinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

Bir guruh iqtisodchi olimlar investitsiya faoliyati, uning tarkibi va manbalarini o'rganishga alohida e'tibor qaratgan bo'lsalar, boshqa guruh charm-poyabzal sanoati korxonalari ishlab chiqarish samaradorligini baholash masalalarini chuqur tahlil etadilar.

Rossiyalik iqtisodchilar Valyagin D.A., Fedoseyev S.A. o'z tadqiqotlarida "...ehtiyotlar tarkibining o'zgarishi, pirovardida, bozorda yangi, yanada samarali raqobatbardosh mahsulotning paydo bo'lishi oqibatida narxlar tarkibining o'zgarishini keltirib chiqaradi", deb ta'kidlaydilar.

Shuningdek, narxlar yangi mahsulot ishlab chiqaruvchilari va iste'molchilari tomonidan uni yaratish va undan samarali foydalanish uchun zarur bo'lgan xomashyo, materiallar va texnikaga, shuningdek, mazkur yangilikni to'ldiruvchi, u bilan samarali uyg'unlashuvchi texnika yoki mahsulotga bo'lgan talabning o'sishi tufayli ham o'zgaradi.

Investitsiya faoliyatining ana shu xususiyatlaridan kelib chiqib, charm-poyabzal tarmog'ida moliyaviy resurslardan tejamli foydalanish, mablag' sarflashda eng samarali loyihalarni tanlab olish, ayniqsa, tayyorlash,



asosiy xomashyo resursi — terini chuqur qayta ishlash jarayonlarida fan sig'imi yuqori bo'lgan texnologik ishlanmalarni joriy etish zarur. Bir guruh iqtisodchi olimlar investitsiya faoliyati, uning tarkibi va manbalarini o'rganishga alohida e'tibor qaratgan bo'lsalar, boshqa guruh iqtisodchilar investitsiya loyihalari, ularni ekspertiza qilish va eng samarali ishlanmalarni tanlash masalalarini chuqur tahlil etadilar.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot instituti olimlarining fikricha, "samaradorlik bu barcha turlarning mohiyati, uning mezonlarida ifodalanib, u 'natija' va 'xarajat' nisbatida o'z ifodasini topadi hamda an'anaviy va bozor ko'rsatkichlari tizimi orqali aniqlanadi. Barcha mazmundagi samaradorlik darajasi texnika taraqqiyotiga, iqtisodiy resurslarning unumdorligi va ulardan foydalanish darajasiga, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarga bog'liq bo'ladi".

Xususan, N.M. Yusupovning fikricha, "...iqtisodiy samaradorlikda quyidagi ko'rsatkichlarni ajratib ko'rsatish mumkin: fond samaradorligi, asosiy fondlarning yangilanish darajasi, tarkibiy investitsiyalar darajasi, hududiy koeffitsiyentlar".

A.Qodirov, X. Abulqosimov, M. Kamolovlar "ishlab chiqarish samaradorligini belgilashda umumiy, hamma voqelikni umumlashtiruvchi ko'rsatkich vazifasini bajara oladigan yakuniy pirovard ko'rsatkich yo'qdir", deb ta'kidlaydilar. V.N. Avdeyenko va V.A. Kotlovlar esa "Korxonaning ishlab chiqarish salohiyati murakkab tizimni tashkil etgani uchun ulardan foydalanish samaradorligi bitta emas, balki ko'rsatkichlar jamlanmasi bilan tavsiflanadi", deb fikr yuritadilar. Popkov V.V. esa "korxonada faoliyatiga baho berish uchun iloji boricha yagona kompleks integral ko'rsatkichga ega bo'lishi kerak", degan fikrni ilgari suradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi charm-poyabzal sanoati tarmog'ining rivojlanish tendensiyalari, ishlab chiqarish salohiyati va iqtisodiy samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, statistik tahlil, solishtirma tahlil hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Mazkur usullar charm-poyabzal sanoatining hozirgi holatini baholash, tarmoqdagi mavjud muammolarni aniqlash va uning istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini asoslash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda respublika charm-poyabzal sanoati jadal rivojlanmoqda. Bu sohadagi muhim yo'nalishlar tayyor mahsulotlar bozorida ham, xomashyo bozorida ham import o'rnini bosishga qaratilmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillarida charm-poyabzal sanoati sohasidagi islohotlarning asosiy maqsad va vazifalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 23-fevraldagi "Respublika iqtisodiyotining charm-poyabzal tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonida aniq belgilab berilgan [1]. Natijada yangi-yangi korxonalar tashkil etildi, zamonaviy texnologiyalar joriy qilina boshlandi. "O'zbekcharm-poyabzali" charm, mo'yna va poyabzal korxonalarini uyushmasining tashkil etilishi bilan respublika poyabzal sanoati asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, qayta tiklana boshladi.

"O'zbekcharm-poyabzali" uyushmasi tarkibida 252 ta korxonalar bo'lib, ularning 73 tasi turli viloyatlarda joylashgan charm, teri xomashyosi tayyorlash korxonasi, 45 tasi charm xomashyosini qayta ishlash, 129 tasi poyabzal ishlab chiqarish, 4 tasi charm-galantereya korxonasi va bittasi sun'iy teri ishlab chiqarish korxonasidan iborat.

"O'zbekcharm-poyabzali" uyushmasi tarkibidagi korxonalar charm, teri xomashyosini tayyorlash va qayta ishlash, poyabzal va charm-galantereya buyumlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Uyushma tarkibidagi korxonalarda poyabzallar, asosan, tabiiy charmdan ishlab chiqariladi. Aynan mana shu sababli ham ularda ishlab chiqarilgan poyabzallarning narxi nisbatan qimmat, chunki sun'iy teridan tayyorlangan poyabzallar 1,5–2 marotaba arzonroq bo'ladi. Shuningdek, garchi resurs bazasi mahalliy charm xomashyosidan iborat bo'lsa-da, uyushma tarkibida teri to'plash, uni oshlash va tayyorlab berish bilan shug'ullanuvchi tarmoq — 13 viloyat va 112 tuman savdo-tayyorlash tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Charm-poyabzal tarmog'ining asosiy xomashyosi qoramol va qo'y-echki terisi hisoblanadi. Ushbu teri xomashyosi ichki bozorda yetarli miqdorda bo'lsa-da, biroq juda past narxlarda xorijga chiqarib yuborilmoqda. Respublikada bir yilda o'rtacha 11,0 mln dona teri xomashyosi, shu jumladan, 7,0 mln dona qo'y-echki va 4,0 mln dona qoramol terisi olinadi.

Modernizatsiya sharoitida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-maydagi PQ-3693-sonli "Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohasini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan, "O'zbekcharm-poyabzali" uyushmasi "O'zcharsanoat" uyushmasi etib qayta tashkil etildi [2].

"O'zcharsanoat" uyushmasi tarkibiga charm, mo'yna xomashyosi va jun tayyorlash, saqlash va qayta

ishlash, chorva mollarini avtomatlashtirilgan holda so'yish, jun, qorako'l va sun'iy charmdan buyumlar, charm-attorlik mahsulotlari, poyabzal ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar, shuningdek, boshqa tashkilotlar ixtiyoriy ravishda kirgan holda faoliyat olib bormoqda.



1-расм. “O‘zcharmsanoat” uyushma tizimidagi korxonalarining ishlab chiqarish mahsulot turlari¹

So‘nggi yillarda charm-poyabzal sohasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan qo‘llab-quvvatlash choralari, shuningdek, soha ishlab chiqaruvchilarining ishtiyoqi va ishbilarmonligi natijasida charm-poyabzal tarmog‘i yuqori sur‘atlar bilan rivojlanib borayotgani kuzatilmoqda.

Biznes muhitini yaxshilash va xalqaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirish sharoitida charm-poyabzal industriyasida ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlar chet ellik hamkorlar va investorlarni ko‘proq jalb qilmoqda.

Uyushma tarkibiga kirgan korxonalar tomonidan sifatli, iste‘molchilar uchun qulay va xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarilishini tizimli va izchil ravishda tashkil qilish choralari ko‘rildi, shuningdek, mamlakatimiz aholisini zarur charm-poyabzal mahsulotlari bilan ta‘minlash bo‘yicha zarur tadbirlar amalga oshirildi (1-jadval).

1-jadval

Charm-poyabzal va mo‘ynachilik mahsulotlari 2022-2024 yillar bo‘yicha asosiy ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari va maqsadli parametrlari to‘g‘risida²

	Ko‘rsatkichlar nomi	O‘lchov birligi	2022-yil	2023-yil	2024-yil
1.	Tovar mahsuloti (solishtirma narxlarda)	mlrd.so‘m	5530,8	7696,9	11511,9
2.	Charm mahsulotlari	mln.kv.dm.	2179,4	2470,9	2772,0
3.	Poyabzal ishlab chiqarish	mln.juft	205,3	246,4	306,2
4.	Charm-attorlik mahsulotlari	mlrd.so‘m	120,3	153,7	214,5

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



1-jadval ma'lumotlarini tahlil qilarkanmiz, o'tgan 2023-yil yakuni bo'yicha: 7696,9 mlrd so'mlik tovar mahsulotlari — o'sish 117,5%; 2470,9 mln kv. dm charm mahsulotlari — 141,2%; 246,4 mln juft poyabzal mahsulotlari — 136,2%; 153,7 mlrd so'mlik charm-attorlik mahsulotlari — 113,5% ishlab chiqarildi. Bu ko'rsatkichlar salmog'ining oshishi 2024-yilda maqsadli parametrlar sifatida rejalashtirilgan.

Tahlillarga ko'ra, O'zbekistonda poyabzalga bo'lgan talab yildan-yilga oshib bormoqda. Ushbu vazifaning yechimini topish maqsadida mahalliy xomashyodan furnitura, yordamchi va butlovchi materiallar hamda boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo'yicha tarmoq dasturi ishlab chiqildi. Uyushmaning charm xomashyosini qayta ishlovchi korxonalar tomonidan har yili 500 mln kv. dm dan ortiq charm tovarlar ishlab chiqariladi va qayta ishlanadi hamda ushbu mahsulotlarning eksport hajmi 20,0 mln AQSH dollarini tashkil etadi. Respublikaning poyabzal va charm-galantereya korxonalarida yiliga umumiy miqdori 25,0 mlrd so'mlik 115,0 mln dan ziyod juft yuqori sifatli poyabzal, zamonaviy charm kiyim-kechaklar va charm-galantereya buyumlari ishlab chiqarilmoqda.

Hozirgi kunda mamlakat charm-poyabzal sanoatida o'sish dinamikasi kuzatilmoqda va uning rivojlanishidagi muhim yo'nalishlardan biri tayyor mahsulotlar bozorida ham, xomashyo bozorida ham import o'rnini egallash hisoblanadi. Tarmoq korxonalarida barcha turdagi maxsus poyabzallar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan, ayollar, bolalar va o'smirlar uchun zamonaviy poyabzallar ishlab chiqarish kengaymoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Charm-poyabzal sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida barqaror rivojlanishga ehtiyoj sezadi. Bu tarmoq mamlakatning sanoatlashuv darajasini oshirishda va eksport imkoniyatlarini kengaytirishda muhim omil hisoblanadi. Ishlab chiqarish hajmini oshirish va xalqaro standartlarga javob beradigan mahsulot tayyorlash orqali tarmoqning raqobatbardoshligini ta'minlash mumkin.

Charm-poyabzal sanoatidagi tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirish uchun hududiy ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish zarur. Mahalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalanish va klaster usulini qo'llash orqali tarmoqning iqtisodiy samaradorligini oshirish mumkin. Bunda ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va texnologik modernizatsiya muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston poyabzal bozorida milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish uchun bozorni institutsional jihatdan tartibga solish mexanizmlarini kuchaytirish lozim. Import tovarlarining ustuvorligi ichki ishlab chiqarish hajmining pastligi va iste'molchilar talabini qondirishdagi muammolar bilan bog'liq. Shuning uchun milliy ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish va importga nisbatan sog'lom raqobat muhitini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika iqtisodiyotining charm-poyabzal tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 2000-yil 23-fevraldagi PF-2552-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-218980>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalarini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 3-maydagi PQ-3693-son qarori. <https://lex.uz/docs/-3720454>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalarida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2022-yil 26-fevraldagi PQ-143-son qarori. <https://lex.uz/docs/-5878105>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6600390>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>
6. Валягин Д.А., Федосеев С.А. **Определение интегрального показателя инвестиционной привлекательности экономического развития предприятия.** — СПб.: СПбГИЭУ, 2004.
7. Аньшин В.М. **Использование теории реальных опционов для оценки инвестиционных проектов.** — М., 2004.
8. Леонтьев В.Е. **Финансовый менеджмент.** — СПб.: ИВЭСЭП, Знание, 2004. — 520 с.
9. Юсупова Н.М. **Инвестиционные возможности Республики Узбекистан // Общество и экономика.** — 2008. — № 3–4.
10. Қодиров А., Абулқосимов Х., Камолов М. **Хўжалик юришининг янги шароитида ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш.** — Т.: ТДТУ, 1995.
11. Авдеенко В.Н., Котлов В.А. **Оценка экономического потенциала промышленных предприятий.** — М., 2001.
12. Попков В.В. **Развитие методики анализа инновационной деятельности на машиностроительных предприятиях.** — Саратов, 2007.
13. Otaniyozov O.O. **Charm-poyabzal tarmog'ining rivojlanish yo'nalishlari va o'ziga xos jihatlari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil.** — 2024. — 8-son. — B. 375–383.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100